

**Qobiljonova Jasmina Jasur qizi**  
**A.Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika universiteti**  
**Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi 2-bosqich talabasi**  
**+998 91 568 22 08**

---

## **TEMURIYLAR DAVRIDA MINIATURA VA NAQQOSHLIK SAN'ATI TARIXINI O'QUVCHILARGA O'RGATISH**

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Temuriylar davrida tasviriy san'atni rivojlanishi, miniature va naqqoshlik san'atini Temuriylar davri madaniyatida tutgan o'rni. Amir Temur va Temuriylar sulolasi davrida ilm-fan, adabiyot, san'at sohalarini ravnaq topishi haqida muhokama yuritiladi. Hamda o'quvchi yoshlarga davlatimiz tarixini, madaniy merosini o'qitish orqali estetik bilimlarini oshirish masalalari o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy san'at, miniatura, naqqoshlik, madaniyat, madrasa, qiyofa, monumental, rassom, tasavvur.

**Abstract:** In this article, the development of fine art during the Timurid era, the role of miniature and painting in the culture of the Timurid era. Amir Temur and the development of science, literature, and art during the Timurid dynasty will be discussed. At the same time, issues of improving aesthetic knowledge are studied by teaching the history and cultural heritage of our country to young students.

**Keywords:** Fine art, miniature, carving, culture, madrasah, image, monumental, artist, imagination.

---

Buyuk Sohibqiron Amir Temur nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahon tarixida ham o'chmas iz qoldirgan davlat arbobi, shavkatli sarkarda va ilm-fan homiysidir. Amir Temur va Temuriylar davri davlatchiligi hamda ma'naviyati o'z salohiyati, mazmuni, tarbiyaviy kuchi, ta'siri bilan xalqimiz tarixida alohida o'rin tutadi. Amir Temur va Temuriylar davrida iqtisodiyot rivojlangani, ilm-fan, san'at-madaniyat gullab-yashnagani bois chinakamiga insoniyat tamaddunidagi ikkinchi Renessans deb baholandi. Amir Temur va Temuriylar davrlari tasviriy san'atning ravnaqi bilan ham namoyon bo'ladi va u turfa yo'nalishlarda rivojlandi.

Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati ravnaqi o'z davrida, undan keyingi davrda va albatta hozirgi kunda ham rassomlar ijodida namoyon bo'lib kelmoqda.

Amir Temur va Temuriylar davri tasviriy san'ati devoriy monumental rassomlik, devoriy suratlar va miniatyuralarda o'z aksini topdi. Ayniqsa miniatyura san'atining rivojlanishi va miniatyuralarda Temuriylar davri madaniyatining aks ettirilishi katta ahamiyatga egadir. Amir Temurning Samarqanddagi saroylarida bir qancha devoriy suratlar bo'lganini yozadi. Ularda saroydagi qabul marosimlari, jang voqealari, shikor manzaralari, xalq bayramlari va hattoki oshiqu- moshiq uchrashuvlari tasvir etilgan. Arabshoh, Amir Temur, uning o'g'illari va nabiralari, ayollari va kanizaklari tasvirini ham bayon qiladi. Albatta, bular barchasi Amir Temur buyrug'i bilan chizilgan bo'lib, uning naqadar ulug'vor shaxs ekanligini ko'rsatib turgan.[1]

Miniatyura san'ati an'analari haligacha saqlab qolgan, hozirgi zamon rassomlari tomonidan yaratilgan asarlarda ifodalangan tasvirlar, o'sha davrning tarixiy voqealari, madaniy hayoti haqida to'laqonli tasavvur hosil bo'lishiga zamin yaratadi.[2]

O'rta Osiyo zaminida temuriylar davri ilm-fan, adabiyot, san'at sohlarida kamolot bosqichiga ko'tarildi. Temuriylar davlatining qudrati ayniqsa me'morchilikda namoyon bo'ldi. Oqsaroy

peshtoqida bitilgan «Quadratimizni ko'rmoq istasang- binolarimizga boq!» degan yozuv Temur davlatining siyosiy vazifasini ham anglatar edi. Temur davrida Movarounnahr shaharlari qurilishida istehkomlar, shoh ko'chalar, me'moriy majmualar keng ko'lam kasb etadi. Ilk o'rta asrlardagi shaharning asosiy qismi bo'lgan «Shahriston»dan ko'lam va mazmuni bilan farq qiluvchi «hisor» qurilishini Samarqand va Shahrisabzda kuzatish mumkin. Temur davrida Kesh shahar qurilishi yakunlandi. «Hisor»ning janubi-g'arbida hukumat saroyi Oqsaroy va atrofida rabotlar, bog'-rog'lar qurildi.

Temur saltanat poytaxti Samarqandni bezatishga alohida e'tibor berdi. Shaharda «Hisori», qal'a, ulug'vor inshootlar va tillakor saroylar bunyod ettirdi. Samarqandga kiraverishdagi Ko'hak tepaligida Cho'pon ota maqbarasi Ulug'bek davrida qurilgan bo'lib, bu inshootda mutanosiblik, umumiy shaklning nafisligi, bezaklarda ulug'vorlik uyg'unlashib ketgan.[3]

Temuriylar davrigacha va undan keyin ham Movarounnahr va Xuroson me'morchiligida bezak va naqsh bu qadar yuksalmagan. Temur va Ulug'bek davri me'morchiligida bezakda ko'p ranglilik va naqshlar xilma-xilligi kuzatiladi. Epigrafik bitiklarni binoning maxsus joylariga, xattotlik san'atini mukammal egallagan ustalar olti xil yozuvda ishlagan.

Oqsaroy peshtoqlarida Sher bilan Quyoshning juft tasviri uchraydiki, bu ramziy ma'noga ega. Temur va Ulug'bek davrida bino ichining bezagi ham xilma-xil bo'lgan. Devor va shift, hatto gumbaz ham naqsh bilan ziynatilgan. Temur davrida qurilgan binolarda ko'k va zarhal ranglar ustun bo'lib, dabdabali naqshlar ishlangan, Ulug'bek davrida Xitoy chinnisiga o'xshash oq fondagi ko'k naqshlar ko'p uchraydi.[4]

Miniatyura rassomchiligi - sharq tasviriy san'atining eng ajoyib san'atlaridan hisoblanadi. Hozirgi zamon tadqiqotchilari esa uning tasviriy ma'nosini turlicha talqin etishadi. Ayrimlar miniatyurani she'riyat, tarix, ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyatiga, voqea-hodisalarni ko'rgazmali ravishda berish jihatiga e'tiborni qaratishsa, boshqa bir guruh vakillari miniatyuralardagi kompozitsiya, obrazlar, ayrim detallar sufiylik ta'limotiga xos haqqa yetishish yo'lidagi sa'yi harakatlarni ifodalaydi, deb baho beradilar.

Amir Temur davrida Samarqandda miniatyura rassomchilik maktabi tashkil topganligi madaniyatga bo'lgan e'tiborning belgisi deb aytak hech mubolag'a bo'lmaydi. hozir Turkiya va Berlin kutubxonalarida saqlanayotgan ko'chirma- homaki miniatyura nusxalari XIV-XV asrlarga oid bo'lib, ularda alohida shaxslar, daraxtlar, gullar, kichik kompozitsiyalar, naqshlarda chiziqlar uyg'unligi, harakatlar aniqligi, qiyofalarning o'z o'rnida joylashtirilishi bilan ajralib turadi.

Tarixiy shaxslarning qiyofalari ham miniatyuralarda aks etgan. Amir Temur qiyofasi tiriklik vaqtida aks etgan miniatyuralar hali topilmagan. Asl holatiga yaqin suratlar «Zafarnoma»ning dastlabki ko'chirilgan nusxalarida uchraydi. Uning bir muncha yorqinroq qiyofasi Hirotda (1467 y.) ko'chirilgan «Zafarnoma»da keltiriladi.[5] Dastlab Mirak Naqqosh boshlagan va Behzod yakunlagan ushbu miniatyurada boy kompozitsiya va serjilo bo'yoqlarning uyg'unligi ajralib turadi.

Miniatyura rassomchiligining taraqqiyoti adabiyotning rivoji bilan ham bog'liq bo'lgan. Musavvirlar Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, so'ngra Jomiy va Navoiy asarlariga rasmlar ishlagan. XIV asrda «Jome' ut-tavorix», «Tarixi Rashidiy» kabi tarixiy asarlarga ham miniatyuralar ishlagan. Bu an'ana Temuriylar davrida ham davom ettirilib, «Zafarnoma» va «Temurnoma» asarlarida jang lavhalari tasvirlanadi. Ayrim hollarda diniy asarlarga ham Makka va Madina tasviri tushirilgan.

XV asr miniatyuralarining aksariyatida sharq she'riyatining qahramonlari-Layli va Majnun, Xusrav va Shirin, Rustam, jang lavhalari tasvirlanadi. temuriylarning Bag'dod, Sheroz, Tabriz, Hirot, Samarqand, Dehli kabi markazlarida bir necha miniatyura maktablari vujudga keldi.

Miniatyurachi rassomlar tarixiy asarlarida ishlagan miniatyuralarda Amir Temur va temuriylarning qiyofalari aks etsa, badiiy asarlarga ishlagan rasmlarida ham ular turli holatlarda tasvirlanadi. Xalil Sulton davrida ishlangan ayrim miniatyuralar grafik tarzda, badiiy jihatdan o'ziga xos «siyohi qalam» uslubida ishlangan. Temur hayotlik davrida uning saroy devorlarida

shoh va shahzodalar bor bo'yida tasvirlanib, haqiqiy portret janrini Kamoliddin Behzod shakllantirdi. Umuman, Temur va temuriylarning qiyofalari tasvirlangan ko'plab miniatyuralar dunyoning turli kutubxonalarida saqlanmoqda. Bu miniatyuralarda nur sochib turgan quyoshsimon sherning boshi tasvirlangan tug'-Temurning gerbi-uning saroyi peshtoqida uchraydi. Shuningdek, tabiat tasvirida to'q yashil va jigarrang ko'pligi, kiyimlar turkiy millatga xos bo'lganligidan bu miniatyuralar Samarqand miniatyurachilik maktabiga mansub deyish mumkin. Chunki, Hirot va Sheroz miniatyuralari qahramonlarining kiyimlari boshqacharoqdir. Ulug'bek davrida ham miniatura mashhur bo'lgan. Ulug'bek davrida as-So'fiyning «Siljimas yulduzlar ro'yhati» asariga ishlangan miniatyuralarda xaritalar qizil va qora doiralar bilan katta va kichik yulduzlarning joylashishi ko'rsatilgan bo'lib, grafik tarzda rang bermay, qora siyohda chizilgan. Yulduz turkumlari tasvir etiladi.

Amir Temur saltanatida miniatyurachilik san'ati qo'lyozma adabiyotning ajralmas bir qismiga aylanib qolgan edi. Ayni vaqtda devoriy suratlar chizish san'ati ham tiklansada, biroq u ko'p davom etmaydi, XVI asrga borib to'xtaydi.

Mirzo Ulug'bek davridagi rassomchilik haqida Abdurazzoq Samarqandiy xabar berar ekan, u Samarqanddagi rasadxonada to'qqizta falak shaklu- shamoyili, etti gardish, yetti yoritkich (yulduz) daraja, daqiqa, soniyalari va uning bo'limlari, shuningdek yer yuzi yetti iqlimi, tog'lari, dengizlari, cho'llari ila tasvirlanganini bayon qiladi. Bular barchasi Mirzo Ulug'bek davrida ham devoriy suratlar mavzui jihatdan boy va rang-barang bo'lganidan darak beradi.

Xulasa qilib aytganda, insoniyat yaratib qoldirgan madaniy meroslar oddiy boyliklar bo'lib qolmaygina, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiradi. Davlatimiz tarixi, madaniyatini chuqur o'rganish va o'qitish, tarixiy merosimiz va yodgorliklar bilan tanishtirish, o'tmish odamlarning hayotiy tajribalarini, hamda o'quvchilarning g'oyaviy-estetik qarashlarini shakllanishiga sabab bo'ladi. Bu esa nafaqat ajdodlarimizga xurmat, balki, boy o'tmishimizdan g'ururlanishdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Naim G'oyibov "Amir Temur davri madaniyati" G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent-2001
2. O.N.Shomurodov "Tasviriy san'at tarixi" o'quv qo'llanma. "Durdona" nashriyoti. Buxoro-2021
3. A.Qodiriy nomidagi JDPU Tarix va uni o'qitish kafedrasida "Amir Temur va Temuriylar davridagi ilm-fan va madaniyat rivojining jahon tamaddunidagi o'rni" Jizzax-2021-yil
4. M.Q.Axmedov "O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. O'quv qo'llanma. "O'zbekiston" nashriyoti Toshkent-1995
5. Amir Temur Ko'ragon "Zafarnoma" ikkinchi nashr. Toshkent-2005